XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 31-oktabr VII-13-76-7-103-K/25 Samarqand tumani

Samarqand tumanida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-98-Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq Samarqand tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi direktori A.Gaybiyevning tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylari band qilib qo‘yish to‘g‘risidagi taklifi hamda O‘zbekiston “Adolat” sosial-demokratik partiyasi Samarqand tuman deputatlik guruhining 2025 yil 24-oktabrdagi 7-sonli bayonnomasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashi yettinchi chaqiriq o’n uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-98-son farmoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-98-son farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Samarqand tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining Samarqand tuman hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlarning umumiy sonini yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar

umumiysonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 165 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 50.3 foiz (83 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 10.9 foiz (18 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 26.7 foiz (44 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 6.7 foiz (11 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 3.6 foiz (6 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1,8 foiz (3 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

4. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Samarqand tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Samarqand tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Samarqand tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi;

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj,

ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Samarqand tuman Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

7. Samarqand tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi direktori A.Gaybiyev besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlarga taqdim qilib, ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin;

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.¶

8. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan Samarqand tuman hokimining 2024-yil 25-oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 391-7-103-Q/24-sonli qarori 2025-yilning 31-dekabridan o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

9. Tuman hokimligi axborot xizmati (F.Davlatov), “Gulobod tongi” gazetasi (S.Narzullayeva)larga ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi tavsiya etilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Shukurova) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Ganiyev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi DAVRONOV ZOKIR KARIMOVICH

Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining
2025-yil 31-oktabrdagi
VII-13-76-7-103-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
ЖАМИ:			**5811**	**96**	**98**	**48**	**10**	**24**	**7**	**6**	**3**
1	Samarqand tuman tibbiyot birlashmasi	200776137	2891	37	21	9	2	9	1		
2	Samarqand tuman politexnikomi	200973335	114	5	3	2	1				
3	Samarqand viloyat ftiziatriya va pulmonologiya markazi	201007839	654	12	14	8	1	3		1	1

4	Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Samarqand viloyat hududiy filiali	201007854	121	2	4	2	1	1			
5	Samarqand davlat tibbiyot universtiteti huzuridagi l.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya virusalogiya yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy tadqiqot instituti va uning klinikasi	201007957	137	1	4	2			1	1	
6	Samarqand viloyat tug‘ruq majmuasi	201008084	502	7	13	4	1	4	2	1	1
7	Samarqand tuman obodonlashtirish departamenti	206938285	138	3	4	2				2	
8	Samarqand tuman 1-son sport maktabi	207238720	100	2	3	2			1		
9	8-maktab	206876696	116	0	3	2		1			
10	9-maktab	206876221	116	1	3	1	1	1			
11	10-maktab	206876625	208	7	6	2	1	1	1	1	
12	11-maktab	203300458	112	3	3	2		1			
13	16-maktab	206876292	141	4	4	2			1		1
14	21-maktab	203311508	108	2	3	2		1			

15	23-maktab	206876356	112	5	3	2	1				
16	33-maktab	206876450	128	2	4	2	1	1			
17	41-maktab	206876539	113	3	3	2		1			

Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining
2025-yil 31-oktabrdagi
VII-13-76-7-103-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Samarqand tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)*** tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
ЖАМИ:			**5196**	**73**	**67**	**35**	**8**	**20**	**4**
1	"Stekloplastik" MCHJ	200972559	208	3	3	2			1
2	"XFARMONF" mas`uliyati cheklangan jamiyati	203744245	143	3	3	2		1	
3	"GULOBOD MEBEL" mas`uliyati cheklangan jamiyati	204751514	176	4	3	2		1	
4	"TOLIB BOBO AKT" mas‘uliyati cheklangan	205275234	264	5	4	2	1	1	

	jamiyati								
5	"MEXR OQIBAT RAMZI" mas`uliyati cheklangan jamiyati	300402148	111	4	4	2	1	1	
6	"FAROVON FAYZ BINOKOR" mas`uliyati cheklangan jamiyati	301134132	183	10	8	3	1	3	1
7	Minor agro qurulish MCHJ	301434804	251	9	5	2	1	2	
8	Navobod naslli parranda fermer xo‘jaligi	301447185	335	2	4	3		1	
9	"Maxsus suv qurulish invest" MCHJ	301698705	232	3	3	1	1	1	
10	"Asia karpet textille" MCHJ	301993093	180	3	4	3		1	
11	"Sam rafoat tekstille" MCHJ	302051419	582	6	6	4	1	1	
12	Agromir MCHJ qo‘shma korxonasi	302517650	633	12	9	4	1	3	1
13	"SAMARKAND TOURISTIC CENTRE" mas`uliyati cheklangan jamiyati	306875513	1734	12	9	4	1	3	1
14	"STC GREEN AND CLEAN" mas`uliyati cheklangan jamiyati	309469604	164	2	2	1		1	